



**O'zbekiston Milliy axborot agentligi  
O'zA Ilm-fan bo'limi**

Elektron jurnal  
2024-yil may soni №5 (55)

Toshkent-2024

# O'ZBEKISTON MILLIY AXBOROT AGENTLIGI – O'ZA ILM-FAN BO'LIMI (ELEKTRON JURNAL)

**Ilmiy nashr**  
**2024-yil may oyi soni №5 (55)**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2019-yil 28-martdagи 263/7.1 va 263/7.4-son qaroriga binoan tashkil etilgan.

Elektron jurnalga kelgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan parchalar O'za Ilm-fan bo'limi (elektron jurnal)dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Elektron jurnalga bir yarim oraliqdagi materiallar "Microcoft Word" redaktori, "Times New Roman" shriftida elektron versiya shaklida qabul qilinadi.

## Tahrir kengashi

A.Ko'chimov  
A.Asqarov  
D.Yu.Yusupova  
A.X.Saidov  
T.O'.Aripova  
Q.R.Allaev  
S.M.Turobjonov  
Sh.T.Qudratxo'ja  
N.A.Husanov  
N.K.Achilov  
G.A.Mardonova

Q.Sh.Omonov  
A.S.Sagdullaev  
S.S.G'ulomov  
F.G.Nazirov  
R.D.Kurbanov  
M.H.Rustamboev  
N.M.Mahmudov  
I.S.Saifnazarov  
N.X.Oblomurodov  
N.N.G'afforov

## O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATIDAGI ISH YURITISHGA OID TERMINLAR USTIDA ISHLASH TAMOYILLARI

O‘lmas SAIDOV

filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Chirchiq, O‘zbekiston

### Annotation

Maqolada o‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi ish yuritish terminlarining tavsiflarini takomillashtirish masalasi tahlil etilgan.

**Tayanch so‘zlar:** terminologiya, leksema, izohli lug‘at, polisemantik termin, nutq, paradigmali aloqalar, lingvistik tadqiqotlar.

## ПРИНЦИПЫ РАБОТЫ С ТЕРМИНАМИ ПО ДЕЛОПРОИЗВОДСТВУ В ТОЛКОВОМ СЛОВАРЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Улмас САИДОВ

доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Чирчикский государственный  
педагогический университет

Чирчик, Узбекистан

### Annotation

В статье анализируется вопрос о совершенствовании определения терминов по делопроизводству в толковых словарях узбекского языка.

**Ключевые слова:** терминология, лексема, толковый словарь, многозначный термин, речь, парадигматические отношения, лингвистические исследования.

Terminologiya – ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, iqtisodiy hayotning turli sohalaridagi yangiliklarni aks ettiradigan, tilning eng tezkor faoliyatini amalga oshiradigan tizimdir. Bugungi kunda ushbu soha muloqot jarayonida axborot bazasi, turli mutaxassislikka oid terminlarni o‘zlashtirish, ilmiy-texnik jarayonlarni jadallashtirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Albatta, bu jarayondagi terminlarni tartibga solish, ularning izohli lug‘atlarda berilishini takomillashtirish terminologiyaning dolzarb vazifalaridan.

Tilning ijtimoiy hayot bilan bog‘liq tarzda taraqqiy etib borishini hisobga olsak, lug‘atdagi so‘zlar o‘z qatlam guruhiga, ayrimlari o‘zlashganlik xususiyatiga ega bo‘ladi, ba’zilari tilni vaqtincha tark etadi (vaqt kelib yana qaytib olinadi), ayrim so‘zlar butunlay iste’moldan chiqadi. Lug‘at tarkibi fan-texnika taraqqiyoti natijasida boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar hisobiga boyib boradi. Bu hodisa rivojlanayotgan har qanday davlatning ichki siyosati,

islohotlari orqali amalga oshadi. Biroq bunday jarayon tilning sofligiga ta'sir etmasligi kerak. Zoton, "har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak" [1]. Lug'atning leksik jihatdan boyib borishi turli jarayonlarda namoyon bo'lib, ijtimoiylashib boradi. Ushbu ijtimoiylashuv sohalar faolligi yoki nofaolligi bilan ham belgilanishi mumkin. Mamlakatda siyosiy islohotlar kuchaysa, shu yo'nalish terminlari faolligi kuzatiladi. Agar iqtisodiy terminlar bilan bog'liq talab kuchaysa, albatta, shu sohaning terminlariga ehtiyoj ortadi. Tibbiyot sohasidagi jarayonlar jadallahsa, shu sohaning terminlari ijtimoiylashib, faollahib nutqqa ko'chib boradi. Bu holat terminologiyaning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Leksikografiya sohasi lingvistikaning eng murakkab qismidir, uning elementlari miqdori juda keng va tizimli bo'lib, bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'ladi.

Har qanday tildagileksema boshqa tildagileksemalar bilan bevosita yoki bilvosita, murakkab va xilma-xil munosabatlar bilan bog'liq. Bu bog'liqlik ifoda va tarkibidagi o'xhashlik yoki farqlarga asoslangan bo'lishi mumkin. Lingvistik tadqiqotlarda bu paradigmatic munosabatlar deb qaraladi [4;75–83]. "Paradigmali aloqalar ma'lum bir belgilarning semantik o'xhashligini birlashtiradi va mazmunan yaqinlashtiradi. Ushbu belgilarning o'xhashligiga asoslanib, so'zlar turli xil sinflarga birlashtirilgan. Bundan tashqari ushbu bo'lim boshqa bo'limlar bilan paradigmatic munosabatda bo'ladi. Binobarin, so'z boyligi turli xil so'zlarni o'zaro bog'liq va kesishish tizimi sifatida taqdim etish mumkin" [5;62] Biroq terminlarda o'xhashlik munosabati ularning izohiga ta'sir qilmasligi zarur.

O'zbek tilining izohli lug'atlarida terminlarga ta'rif berish usullari va tadqiqoti bilan bog'liq holda yuzaga kelgan leksikografik ta'riflar ilmiy adabiyotlarda bir necha bor muhokama qilingan. Xususan, o'zbek tilida leksikografiya va terminologiya masalalari M.E.Umarxo'jayev, X.Dadaboyev, I.X.Sadikova, S.X.Nurmatova, O.Tursunova, P.P.Nishonov, O.S.Ahmedov, H.V.Mirzaxmedova, S.Muhamedova, S.E.Normamatov, S.T.Mustafayevalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Sohaviy terminlarning lingvistik tadqiqi bilan D.X.Kadirbekova, N.A.Martinova, A.B.Adigeneva, D.Kamchibekova, O.S.Ahmedov, P.P.Nishonov, X.Paluanovalar shug'ullanishgan. Muhokamalar asosida takliflar va amaliy ishlar bajarilgan. Ammo vaqt o'tgan sari yangilanishlarga ehtiyoj paydo bo'laveradi. Bu masala yuzasidan akademiklar L.V.Shcherba, A.A.Shaxmatov, X.Kasares, V.Doroshovskiy va boshqa nufuzli mualliflar o'z fikrlarini bildirib, leksikografik tajriba ma'lumotlarini keltirib o'tishgan.

Ta'riflashdagi leksikografik qiyinchiliklarning manbai termin – uning maxsus bilimlar tizimiga tegishliligi hisoblanadi. Ushbu bilimlar tarkibida ma'lum o'rinni egallab, uning boshqa elementlari bilan aloqalarni toplash, tavsifda termin umumiyl tushuntirish lug'ati o'zining falsafiy mohiyatining ushbu o'ziga xos tomoniga u yoki bu shakllangan munosabatni talab qilishidir. Ushbu terminlarni toplash alohida masala bo'lsa, ularga berilgan ta'riflarning izohi va ularni takomillashtirish masalasi jiddiy jarayonni tashkil etadi.

Biz ushbu o'rinda o'zbek tilining izohli lug'atlardagi ish yuritish terminlarining tavsiflarini takomillashtirish masalasiga alohida to'xtalib o'tamiz. Avvalo, ish yuritish terminlari deganda, ko'pchilikning ko'z o'ngida murakkab jarayonlar, xalqaro aloqalardagi ish qog'ozlari-yu, tashkilotlar va muassasalardagi rasmiy ish yuritish hujjatlari gavdalananadi. Biroq, ish yuritish terminlarining mavzu ko'lami keng bo'lib, ularni izohlashda o'z me'yorlari, leksikografik

tasvirlash tamoyillari va yondashuvlari mavjud. Shu boisdan “kishi o‘z fikrini aniq va ravon ifodalash uchun tildagi uslublardan ham xabardor bo‘lishi, kundalik so‘zlashuv tilidan tashqari, rasmiy – ish yuritish tilini ham bilishi kerak. Chunki oddiy ishchimi, dehqonmi, tadbirkormi, ziyolimi, baribir, hech bo‘lmaganda, ariza, tilxat, ishonchnoma yozishga to‘g‘ri keladi” [3;4]. Albatta, insoniyatning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnii oshib borishi bilan kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning takomillashib borishi kuzatiladi, tabiiyki, bu jarayonda ish yuritish hujjatlari ham takomillashib boradi. Xususan, “...respublikamiz hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan katta o‘zgarishlar, rivojlangan juda ko‘p mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayib borayotganligi qisqa vaqt mobaynida o‘zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ana shunday omillar ta’sirida o‘zbek tili lug‘ati tarkibida yuz bergen jiddiy o‘zgarishlar munosabati bilan o‘zbek tilining davr talabiga javob beradigan ko‘p jildli izohli lug‘atini tuzish va chop etish” ishlari amalga oshiriladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ish yuritish terminlari boshqa lug‘atlar singari bosh so‘z va unga tuzilgan lug‘at maqolasidan tashkil topadi. Tilshunoslikda, aynan, terminologiyaga oid ilmiy manbalarda lug‘at maqolasi haqida aniq nazariy ma’lumotlar to‘plash lug‘at maqolasining takomillashgan holatini bildiradi. Lug‘atlarning tarkibiy qismi bo‘lgan terminlar izohi hamda uning struktur, semantik-funksional, leksik xususiyatlari yetarli darajada ilmiy-nazariy asoslanmasa, ularning izohiga qo‘srimcha takomillashtirish kiritish zarurati tug‘iladi. Avvalo, o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida ish yuritish terminlarini tanlab olish mezoni va uning izohini takomillashtiradigan bir necha omillar bor.

Masalaning birinchi tomoni shundan iboratki, ish yuritish terminlari arxaik xarakterga egaligi yoki istorizm shakliga kelib qolganligi natijasida uning o‘rniga yangi muqobil terminga ehtiyojning paydo bo‘lishi sababli ayrim muammolar yuzaga keladi.

Quyidagi terminning izohiga e’tibor qaratamiz

“MUNSHIY [a. – asoschi, yaratuvchi, quruvchi, tuzuvchi, yozuvchi.] Saroyda yozuv ishlarini olib boradigan kotib. Anvar devonxona sahniga yetganda, ichkaridagi kattadan-kichik mirzo, munshiylar yangi boshliqlarini muborakbod qilgali o‘rinlaridan qo‘zg‘aldilar. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon” [6;642].

Ushbu termin bugungi kunda eskirganligi, iste’molda bo‘lmasligi, tarixiy terminga aylanishi natijasida nutqiy nofaollikkiga uchragan va davr talabi bilan yangi terminga ehtiyoj paydo bo‘lgan.

Ikkinchi masala, uning izohida. E’tibor berilsa, munshiy termini tarkibidagi “asoschi”, “yaratuvchi”, “quruvchi”, “tuzuvchi”, “yozuvchi” ma’nolari bugungi kun o‘quvchisini chalg‘itib yuboradi. Sababi, bu termin tarkibidagi izohlar bir vaqtning o‘zida bir nechta terminning ta’rifini anglatmoqda: munshiy – asoschi, munshiy – yaratuvchi, munshiy – quruvchi, munshiy – tuzuvchi, munshiy – yozuvchi. Ilmiy tahlilga ega bo‘lmagan, ilmiy mushohadasi yetarli bo‘lmagan o‘quvchining ko‘z o‘ngida, albatta, yozuvchi deganda – adib (nosir), quruvchi deyilsa – arxitektor gavdalanadi. Bunday xulosaga kelishida terminga berilgan izoh sababchi. Demak, terminlar izohi o‘ta jiddiy jarayon bo‘lib, bitta so‘z yoki so‘z birikmasining ahamiyati muhim hisoblanadi. Izohdagi “asoschi”, “yaratuvchi”, “quruvchi”, “tuzuvchi”, “yozuvchi” leksemalari oldidan matn, xat, ro‘yxat so‘zlari qo‘ylsa, ta’rif yorqinlashadi. Ya’ni matn asoschisi, matn yaratuvchi, ro‘yxat tuzuvchi, xat yozuvchi birikmalari paydo bo‘ladi va

munshiyning faoliyati yozuv-chizuv ishlari bilan bog‘liq shaxs ekanligi oydinlashadi. Ta’rif davomida munshiy “saroyda yozuv ishlarini olib boradigan kotib” deya izohlanadi, terminning ma’nosini to‘liq tushunib olish uchun o‘quvchi endi boshqa termin, ya’ni kotib leksemasi izohiga murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida kotib termini shunday izohlanadi:

“KOTIB [a. (xat) yozuvchi, (kitob) ko‘chiruvchi] 1 map. Ro‘yxat tuzish, qo‘lyozmalarni ko‘chirish bilan shug‘ullangan shaxs, mirza.

2 Idora va muassasalarda, lavozimli kishilar, yozuvchilar va sh.k. shaxslar huzurida yozuv-chizuv ishlari va yozishmalarni olib boruvchi xodim, shaxs.

3 Idora, muassasa va sh.k.lar kotibiyatiga rahbarlik qiluvchi, kotibiyat ishlariga mas’ul xodim.

4 Maxsus kengash, yig‘inlarning bayonnomasi va sh.k. yozuv-chizuv ishlarini olib boruvchi shaxs” [6;413].

Ushbu termin ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega bo‘lib, davrlar o‘tib uning vazifalari o‘zgara borgan, lekin umumiy jihatdan barcha ta’riflar vazifasiga ko‘ra “yozuv-chizuv ishlari bilan shug‘ullanadigan shaxs” ma’nosini bildiradi. Terminning birinchi ma’nosini izohiga e’tibor berilsa, ma’noni to‘liq uqish uchun mirza leksemasi izohiga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi:

“MIRZA [a.+f.] 1 Yozuv-chizuv ishlarini olib boradigan lavozimli kishi.

2 ko‘chma. Savodli, o‘qimishli odam. Mirza yigit. Savodli, o‘qimishli yosh kishilarga hurmat bilan murojaat etish shakli.

3 esk. Yuqori tabaqalarga mansub kishi; janob...” [6;599].

Ko‘rinyaptiki, kotib va mirza terminlarining ma’nolari bir-biriga havola qilinishi, bosh ma’nolari bilan munshiy terminiga sinonim ekanligi turli izohlar orqali ayon bo‘lmoqda. Bu hol lug‘atdan foydalanuvchi uchun terminlar ma’nosini to‘la tushunishda mushkullik tug‘diradi. Ushbu terminlarga berilgan ta’riflar umumiy va hammaga tushunarli qoidalar bilan yoritilishi maqsadga muvofiq. Agar termin yuqoridagi qarama-qarshiliklar, ma’nodoshlar, g‘aliz qoidalar, nofaol atamalar bilan izohlansa, o‘quvchida ular yuzasidan savollar paydo bo‘laveradi. Izohli lug‘atlar ortiqcha izoh va g‘alizliklardan xolis bo‘lishi kerak.

Masalaning ikkinchi tomoni ish yuritish terminlaridagi ko‘p ma’nolilik bilan bog‘liq. Polisemantik terminning barchaga ma’lum bo‘lgan ma’nosini terminlik semasidan ko‘ra faol bo‘lgan taqdirda, nutqiy faol bo‘lgan ma’nosini birinchi navbatda berilishi, terminlik ma’nosini qo‘llanilish darajasiga qarab maxsus pometa bilan ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Sababi, pometasiz izohlanayotgan ba’zi polesemantik so‘zlarning terminlik xususiyatini anglash mushkul bo‘ladi. Masalan, O‘TILda amal leksemasining 8 ta ma’nosini bo‘lib, ish yuritishga tegishli semalari ham mavjud. Biroq u maxsus tadqiq etilganda bilinadi, kitobxon buni anglamasligi mumkin.

“AMAL [a. ish, harakat] 1 Ilm, nazariya, fikr va sh.k.ning hayotiy reallashuvi.

2 E’tiqodga oid ish, aqida ishi.

3 Umuman, bajarilishi lozim bo‘lgan ish, amaliy ish.

4 Mas’ul vazifa, mansab.

5 Iloj-imkon, chora.

6 ko‘chma. Uyg‘onish, hayot boshlanishi (o‘simlik, daraxt kabilar haqida).

7 mat. Matematik hisobning har bir turi.

8 etn. Isitish, sovitish, birovning ishini orqaga ketkizish, turgan uyidan bezdirish va sh.k. maqsadlarda dam solingan narsa; sehr-jodu”.

Izohlardan uchinchi va to‘rtinchi ma’nolar ish yuritishga oidligi seziladi. Ammo leksikografik belgisiz oddiy kitobxon buni anglamaydi va bu maxsus tadqiqot natijasida yuzaga keladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida ayrim leksemalar polesemanistik xarakterga ega bo‘lishi bilan birga uning barcha sememalari terminlik semasini yuzaga keltirgan va ish yuritish termini sifatida izohlangan holatlari ham mavjud. Shunday terminlardan biri hissa leksemasidir.

“HISSA [a. bo‘lak, qism; ulush; foydaning bir qismi] 1 Ma’lum maqsad bilan bo‘lingan, qismlarga ajratilgan narsaning har bir bo‘lagi, qismi; qism, bo‘lak.

2 Muayyaan shaxs yoki narsaning haq-huquqi, imkon; tan, chek.....

3 ayn. ulush 1.

4 Biror narsa, umumiyl ish va sh.k.larni tashkil etuvchi qism; unga qo‘shiladigan qism; ulush.....

5 esk. Biror tashkilot yoki to‘daga qo‘shilish, sherik bo‘lish yoki a’zo bo‘lish uchun kirish haqi sifatida to‘lanadigan haq, pay.

6 Marta, barobar. Uch hissa ortiq...” [7;538]

Izohlarning barchasida ish yuritishga tegishli ta’riflar mavjud. Xususan, “cheq”, “ulush”, “pay”, “bo‘lak”, “haq”, “barobar” semalari “hisob-kitob” ma’nosini anglatuvchi terminlik xususiyatini o‘zida yuklagan. Uchinchi izohda ulush leksemasiga ayn. uslubiy belgisi bilan havola qilingan. Lekin termin sifatida qo‘llanilishiga bu yetarli ta’rif emas. Chunki izohli lug‘atda soha terminiga beriladigan ta’rif chuqurroq, kengroq va izohlanishi aniq bo‘lmog‘i zarur. Agar bu o‘rinda ma’nodosh sifatida keltirilgan bo‘lsa, bиринчи ma’nosidan oldin berilishi kerak.

Ish yuritishga oid terminlarni takomillashtirishda talaffuzi qiyin bo‘lgan neoterminlar o‘rniga terminlik semasini beradigan o‘zbekcha muqobiliga almashtirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Masalan, Avtobiografiya termini tarjimayi hol termini o‘rnida faol qo‘llangan singari ayrim terminlar ham muqobillari bilan almashtirilishi kerak. Ya’ni, ish yuritish terminlarini milliylashtirish bo‘yicha tavsiya va takliflar kiritilishiga ehtiyoj paydo bo‘lmoqda.

Xulosa qilganda, termin shaklidagi leksemalarni milliy muqobiliga almashtirish, izohini takomillashtirish orqali quyidagi qulayliklarga erishiladi:

1. Terminning talaffuz qilish qulayligi ta’milanadi, orfoepik me’yor talablari bajariladi.
  2. Imlo qoidalari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar bartaraf etiladi, orfografik me’yor qulayliklariga erishiladi.
  3. Nutqiy qulay, ya’ni hammaga birdek tushunarli bo‘ladi hamda faol leksik qatlamdan joy oladi.
  4. Nutqning sofligi ta’milanadi, tinglovchiga yoqimli eshitiladi.
  5. Terminlarning shakl va mazmuniy xususiyatlarida o‘zgarishlar ro‘y berishiga olib keladi.
  6. Soddalik tamoyili ta’milanadi. Izoh sodda tilda bayon etilishi sohaviy lug‘atda mavjud izohning oson tushunishga ko‘maklashadi.
  7. Bugungi faol ijtimoiylashuv davrida omma nutqiga yot bo‘lgan terminlarni bir so‘z bilan tilimizda ifodalab bo‘lmasligi sababli terminlarni birikmali holda berish mexanizmi yaratiladi.
- Albatta, insoniyat hayotining taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi terminlarning

almashina borishi, insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning o‘sib borishi barobarida ish yuritish hujjatlari takomillashib, har tomonlama qulay bo‘lib borishi kerak. Chunki ilm-fanning barcha sohalari bo‘yicha bugungi kun talablariga javob beradigan ish yuritish terminlarini yaratish ushbu tizimning rivojlanishiga muhit yaratadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqi. //Halq so‘zi, 2019 yil 22-oktyabr.
2. Mustafayeva S. Xitoycha-o‘zbekcha tilshunoslik terminlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazi, 2014. – 111 b.
3. Mahmudov N. va boshqalar. Ish yuritish. – Toshkent: “O‘zME” ilmiy nashriyoti. 2003.
4. Суперанская А.В. Терминология и номенклатура // Проблематика определения терминов в словарях разных типов. – Ленинград, 1976.
5. Ergasheva M. Olamning lisoniy manzarasi va semantik maydonlarga bo‘linishi. // Молодой учёный, 2016. – №3.1 (107.1). – B.62.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.



<b>O‘SAIDOV.</b> O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi ish yuritishga oid terminlar ustida ishlash tamoyillari .....	92
<b>М.И.СУЛАЙМАНОВА.</b> Ўзбек ва қирғиз халқ ўланларининг этник ва бадиий хусусиятлари.....	98
<b>M.K.USMONOVA.</b> O‘zbek tilida so‘z tarkibining o‘zgarishi .....	103
<b>F.Y.XAMRAYEV.</b> Xorijiy tajribalar asosida yangi o’zlashmalarni milliylashtirish masalasiga yondashuv.....	108
<b>Н.М.УСМАНОВА.</b> Келишик шаклларининг грамматик хусусиятлари ва вазифалари .....	115
<b>G.K.KAZAKOVA.</b> Zamonaviy esselarda ruhiyat masalasining asosiy o‘ringa ko‘tarilishi (Abdusaid Ko‘chimov ijodi misolida) .....	120
<b>L.TURAYEVA.</b> Sport mavzusini ommaviy axborot vositalarida yoritishda janrlarning qo‘llanilishi .....	125

## *Tarix*

<b>A.A.XAKIMOV.</b> Farg‘ona vodiysi bronza davri madaniyatining davrlashtirilishi: Chust madaniyati .....	131
<b>A.A.YO‘LDASHEV.</b> Germaniyada ta’lim olgan Abduvahob Murodiy taqdiri.....	136
<b>Н.Қ.РАХИМДЖАНОВА.</b> Янги Ўзбекистонда хусусий олий таълим истиқболлари: ўтмиш ва бугун.....	144
<b>Н.Н.КУРБАНОВА.</b> Ўзбекистонда миллатлараро дўстлик ва динлараро бағрикенгликни таъминлашнинг устувор йўналишлари .....	150
<b>Н.Б.МАХМУДОВА.</b> Некоторые аспекты организации и формирования состава ревизионной комиссии сенатора К.К.Палена (на основе архивных документов 1908-1909 гг. Российского государственного исторического архива) .....	155
<b>Н.Ф.ШИРИНОВА.</b> Туркистанда касалликларни даволашда халқ табобатининг ўрни (XIX аср охири XX аср бошлари) .....	160

## *Falsafa*

<b>M.I.YAKUBOVA.</b> Ommaviy kommunikatsiya – ommaviy axborot vositalarining o‘zaro aloqadorligi.....	167
<b>I.M.ARZIMATOVA.</b> Rahbar kadrlar faoliyatida axloqiy-estetik muammolarning namoyon bo‘lishi .....	172

**Mas'ul muharrir:**

G.A.Mardonova

**Tarjimon:**

Z.T.Boboeva

**Korrektorlar:**

D.Abduqodirova

U.Toychiboeva

S.Kislyak

**Texnik mutaxassis va dizayner:**

A.A.Nazarqulov

Ilmiy maqolalarda keltirilgan fakt va raqamlar uchun  
mualliflar javobgardir.

Ilm-fan va innovatsiyalar bo'limi (71 233 09 21; 99 833 62 71)

O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'zA Ilm-fan bo'limi  
(elektron jurnal) 2024-yil may oyi soni №5 (55)

Manzil: Toshkent sh., 100000, Buyuk Turon ko'chasi 42.